

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701342**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

- 1.** Yasama so'z vazifadosh ko'makchi bo'lib kelgan gapni aniqlang.  
 A) Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab o'zini tolqitirib qo'ygandi.  
 B) Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohimga atalgani sezilib turardi.  
 C) Bobur tufayli mana shu qorong'ulikni boyniga olib kelmoqda edi.  
 D) Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yo'zgani Xondamirni hayron goldirdi.
- 2.** Sariq rang ozodlikka va kuch -quvvatga intilish, ochiqlik, faollik, shuningdek, hayotga umidvorlik ramzidir.  
 Ushbu gapda yasalish asosi yasama sifatga mansub bo'lган so'z(lar) qanday sintaktik vazifa(lar)ni bajargan?  
 A) ega, to'ldiruvchi  
 B) to'ldiruvchi, aniqlovchi  
 C) kesim  
 D) aniqlovchi
- 3.** Unim yo'q, bunim yo'q.  
 Uyimda unim yo'q.  
 Ishimda unum yo'q.  
 Aytishga unim yo'q.  
 Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lган so'zlar qaysi turkumlarga mansub?  
 A) I o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh  
 B) 2 o'rinda ot, I o'rinda olmosh  
 C) 2 o'rinda ot, I o'rinda olmosh, I o'rinda fe'l  
 D) 2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh
- 4.** Qaysi gapda barcha yopiq bo'g'inlar faqat til undoshlari bilan tugagan?  
 A) Tursun tomda tursin.  
 B) Eng buyuk jasorat bu - ma'naviy jasoratdir.  
 C) Guvoh sudga ketdi, qo'shni sutga ketdi.  
 D) "Hamma balo tildan keladi", - deydi bobom.
- 5.** Quyidagi qaysi gap(lar)da fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
 1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.  
 2. Ko'rpaning guldar qavig'i hammani qiziqtidi.  
 3. O'yoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayffiyatini tarqatdi.  
 4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rnidan qo'zg'ab qo'ydi.  
 A) 3 B) I, 2, 4 C) I, 2, 3 D) 4
- 6.** Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand.  
 Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.  
 B) To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.  
 C) Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelanigan.  
 D) Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan.
- 7.** O'qituvchi bolalarni nazmdan xabardor etish maqsadida "Guliston" va "Bo'ston" kitoblarini mustaqil mutolaa qilishga ruxsat berdi.  
 Gapda ishtirot etgan to'diruvchilar haqidagi noto'g'ri fikrni toping.  
 A) Aniqlovchilarning to'diruvchiga tobelanishi kuzatiladi.  
 B) Gapda nomustaqlil to'diruvchilar ishtirot etgan.  
 C) Vositiali to'diruvchining vositasiz to'diruvchiga tobelanishi kuzatiladi.  
 D) Vositasis hamda vositiali to'diruvchining holga tobelanishi kuzatiladi.
- 8.** Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli ham shakldosh so'z hisoblanadi?  
 A) chaqmoq, rasta, bardam B) dunyo, asl, ilik C) shox, tovon, es D) yoq, to'da, asil
- 9.** Qaysi javobdagagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay oladi?  
 A) tanti-mard B) adl-tik C) ahl-totuv D) qisim-siqim
- 10.** Ko'chma ma'noli so'z berilgan qatomni toping.  
 A) Bo'yi va eni bir yarim metr keladigan g'or og'zi ochildi.  
 B) Sal o'tmay osmonga sutrang nur purkab chaqin chaqdi.  
 C) Nurmat tog'a ozoda odam bo'lgani uchun ayvonni guldek tutadi.  
 D) Yangi tug'gan sigirning sutidan og'iz tayyorlanadi.
- 11.** Bo'lishsizlik shakli bir martalik harakat inkorini ifodalagan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan gapni aniqlang.  
 A) Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay goldi.  
 B) Adolat hech kimga zarar keltirmaslik, adolatsizlik qilmaslik va zimmadagi ezgu ishlarni bajarmay qo'ymaslikdir.
- C)** Buyurgan ishlarini bajarib qo'magani uchun onasi uni qattiq koyidi.  
**D)** Bo'lib o'tgan bu noxush hodisa kelgusida bundan-da salbiy oqibatlarga olib kelmasligiga kim kafolat bera oladi?
- 12.** Qaysi gapda fe'lning barcha vazifa shakllari ishtirot etgan?  
 A) Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, shuning uchun sha'ningizga dog' tushiradigan ish qilmang, - dedi kuyunib.  
 B) So'rida ko'rpachani yig'ishtiririb olib, mehmonlar kelguncha yakandoz to'shab, joy soldi.  
 C) Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay kula boshladi.  
 D) Necha kundan beri qattiq esayotgan shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni goldirdi.
- 13.** 1) qochirmoq; 2) qaytarmoq; 3) yedirmoq; 4) keltirmoq; 5) bo'shatmoq  
 Fel asosida ifodalangan o'timli-o'timsizlik ma'nosi qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'llarni aniqlang.  
 A) I, 2, 4, 5 B) I, 2, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) I, 3, 5
- 14.** Qaysi gapda ham asliy, ham nisbiy sifatlar ishtirot etgan?  
 A) Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun xalq masfuraviy jihatdan qurollangan bo'lmosh kerak.  
 B) Xonaga do'ppili kishi kirib, oilaviy masala bo'yicha ishi borligini aytди.  
 C) O'ymakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqali eski eshikka kiramiz.  
 D) Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta odam.
- 15.** Aralash murakkab qo'shma gap keltirilmagan javobni belgilang.  
 A) Ergash unga shunday qaradiki, bu nazarni hamma payqadi, ammo shovshuv tinmadi.  
 B) Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'l'sa, jamoa a'zolari o'rtasida ahillik va hamjihatlik bo'l'sa, u yerda yashash ham zavqli bo'ladi.  
 C) Agar so'z qalbdan chiqib kelsa, eshituvchining qalbiga darrov ta'sir qiladi, ammo tildan sodir bo'l'sa, qulogdan nariga o'tmaydi.  
 D) Bilingki, kim olg'a yurmasa, keyingi sayohatga bormaydi, shuning uchun tez-tez harakat qiling.
- 16.** Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan javobni belgilang.  
 A) xatto, muxojir, zaxmatkash  
 B) hatto, muhojir, zaxmatkash  
 C) hatto, muhojir, zahmatkash  
 D) xatto, muhojir, zahmatkash
- 17.** Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo'yishlarida avvalo ota-onal mahalla-ko'y bir so'z bilan aytganda o'zimizning bilib-bilmay qilgan xatti-harakatlarimiz bosh omil bo'lib xizmat qiladi.  
 Ushbu gapda necha o'rinda vergul tushirib qoldirilgan?  
 A) 5 o'rinda B) 6 o'rinda C) 7 o'rinda D) 4 o'rinda
- 18.** Qaysi gapda barcha aniqlovchilar yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
 A) Hindubek turli tillarni o'rgangan ilmli, ma'rifatli, dilkash kishi edi.  
 B) Tiniq osmon tumanli nurga cho'mgan, to'lin oy hamma yoqni yoritar, yulduzlar siyrak ko'rinar edi.  
 C) Bog'dagi yumshoq xushbo'y noklar va qip-qizil olmalar ko'zingizni quvontiradi.  
 D) Uning chaqnoq ko'zlar, o'ychan turishi, alamli qarashi cheksiz bardoshini aks ettirib turardi.
- 19.** Berilgan she'riy parchada holning qaysi ma'no turlari ishtirot etgan?  
 Saboq olib diyonatdan,  
 Ezgu ishdan, matonatdan,  
 Qochib mudom xiyonatdan,  
 Asragayrmiz biz Vatanni.  
 A) faqat payt holi B) sabab holi, payt holi C) o'rin holi, payt holi D) ravish holi, payt holi
- 20.** Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,  
 Ko'rmsa yaxshilarga yaxshilik ravo.  
 Ushbu parchada qanday munosabatlari so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
 A) boshqaruv B) bitishuv C) boshqaruv va bitishuv D) moslashuv va boshqaruv
- 21.** Turk xalqining zaiflasha boshlaganidan foydalananib qolgan dushman elchi jo'natib, turk xoqonidan uning eng yaxshi ko'rgan otini so'rattirdi.  
 Ushbu gapda aniqlovchilar qaysi gap bo'laklarga tobelanigan?  
 A) qaratqich aniqlovchi, ega, vositasiz to'diruvchi, sifatlovchi aniqlovchi B) sifatlovchi aniqlovchi, vositali to'diruvchi, ega, vositasiz to'diruvchi

- C) qaratqich aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi, ega, vositasiz to'ldiruvchi  
D) qaratqich aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega
22. Qaysi gap tarkibida fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'laladigan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
A) Bolaligimi sirdosh dugonalr darvrasida o'kazmaganman.  
B) Belanchakda yotgan go'dakning o'sik yig'isi Oysha onaga ta'sir qildi.  
C) Qizining doimiy ezgin xayollar og'ushida yurganini ko'rib, uning bir dardiga o'n dard go'shildi.  
D) Rahimjon korxona xodimlarining e'tiborsizliklari tufayli yuzaga kelgan qatro jiddiy muammolar haqida gapirdi.
23. Berilgan she'riy parchada asos va ikkita munosabat shakliga ega bo'lgan ismlarga mansub so'zlar necha o'rinda qollangan?  
Bilmam, nima edi maqsading,  
Menga bir juft guling asrading,  
Birin otin Kumush atading,  
Birin otin Zaynab qo'yding-ku.  
A) 8 B) 6 C) 5 D) 7
24. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot turkumiga oid so'z bilan omonim bo'lal oladi?  
1) erimoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq  
A) 3, 4, 5 B) 1, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5
25. "Sayohatnomalar" asarida Muqimiy:  
Bir ko'cha ketguncha do'kon,  
Sho'x odami, ichmay piyon,  
Mast otasi bezor ekan...  
misralarida qaysi joyni ta'riflagan?  
A) Nursuxni B) Do'manchani C) Oltiarigni D) Zohidonni
26. Berilgan qaysi g'azallar hasbi hol yo'nalishida yozilmagan?  
1) Turdining "Tor ko'ngullik beklar..." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 2) Turdining "Turdiman" radifli g'azali; 3) Nodiraning "Kel, dahrni imtihon etib ket..." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 4) Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azali.  
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 4
27. Ollohnning sifatlari, go'zallik asarlari butun borliqda aks etishini qalb ko'zi ochiqlargina ko'ra olishini, g'ofillar esa bundan bexabarligini" Jahon to'la, sen g'ofilsan Yoringdan" misrasi orqali bergan shoira kim?  
A) Turdi Farog'iy B) Maxtumquli C) Zavqiy D) Fuzuliy
28. Quyidagi bayt qaysi ijodkorning tarji'bandida takrorlangan?  
Dahr bir vayrona edurkim, zzarob obod erur,  
Chiqsa andin har kishi - g'am bandida ozod erur.  
A) Alisher Navoiy B) Ogahiy C) Nodira D) Uvaysiy
29. Qaysi javobda Oybekning "Dilbar davr qizi" asari bilan bir xil janrdagi asar nomi berilgan?  
A) "Baxtigul va Sog'indiq"  
B) "Nur qidirib"  
C) "Mahmud Tarobiy"  
D) "Bolalik"
30. Davlat qo'nsa bir chibinning boshig'a,  
Semurg' qushlar salom berar qoshig'a...  
Ushbu bayt xalq dostonlaridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?  
A) Algomish B) Boysari C) Kuntug'mish D) Boybo'ri
31. Quyidagi keltirilgan parchda qaysi asar qahramonining holati tasvirlangan?  
"Ilgari kampir ba'zi – ba'zida bu kiyimlarni hidlab yig'lardi. Endi ko'ksidagi muz uni yig'lashga qo'ymadi. U hovli o'ttasiga xazon to'plab, gugurt chaqdi. Gurullab yonayotgan gulhangani ...ning kiyimlarni birma – bir tashlay boshladi. Gulhanda ... ning bolaligi yonardi".  
A) "Qorako'z Majnun" da Saodat aya  
B) "Ko'k eshik" da Zuhra kampir  
C) "Ufq" da Jannat xola  
D) "Chinor" da Sharofat xola
32. Quyidagi parcha "Zarbulmasaldagi qaysi qahramonga aloqador?"  
"... yaxshi ko'rgan to'ppisini tez oqar suvgaga oqizibdi. Necha jahd bilan ololmay, nochor mahrum bo'lib, aytar erdikim: Yo'qolg'an xo'b bo'ldi. Boshimg'a tor kelyotgan edi".
- A) Ahur qassob B) Mulla Siddiq kitob C) Eshon kalla D) Otaboy Amin
33. Hasbi hol yo'nalishidagi quyidagi misralar qaysi shoira qalamiga mansub?  
Yigirma yil maktab ochdim qizlara,  
Hirsim baland bo'ldi doyim ash'ora.  
O'zum bitdim mingdin ortuq g'azalni,  
Zikr etib o'tdim oxir azalni.  
A) Dilshodi Barno B) Nodira C) Anbar Otin D) Jahon Otin Uvaysiy
34. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,  
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!  
Shu so'zni aytti, tig' urdi o'zig'a,  
Ko'rinmay qoldi keng olam ko'zиг'a.  
Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?  
A) Farhod, "Farhod va Shirin"  
B) Majnun, "Layli va Majnun"  
C) Suhayl, "Suhayl va Guldursun"  
D) Suhayl, "Sab'ayi sayyor"
35. Qaysi asar Alisher Navoiyning falsafiy qasidasi hisoblanadi?  
A) "Tuhfatul-afkor" B) "Sab'at-u abhur" C) "Munshaot" D) "Nasoyim ul-muhabbat"
36. Qilubdur mahliqlarning yuzini  
Latofat mus'hafiq'a oya navro'z.  
1) tashxis; 2) tardi aks; 3) tashbeh; 4) tazod; 5) tarse'  
A) 1, 3 B) 1, 5 C) 1, 2, 5 D) 3, 4
- ### BIOLOGIYA
37. Oq ko'zli erkak drozofila pashhasining somatik hujayrasi mitoz sikli metafaza bosqichida ko'z rangini belgilovchi allellardan A va a genlari soni nechaga teng?  
A) A-1 va a-2  
B) A-0 va a-1  
C) A-0 va a-2  
D) A-2 va a-2
38. Makkajo'xorda barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilari hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'yli o'simlik bilan chatishirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.  
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malli, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishirilgandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?  
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. DNK bo'lagi genomining ma'lum joyidan chiqib ketishi (a) va kirishi (b) qanday nomlanadi?  
A) a-eksiziya; b-insersiya  
B) a-insersiya; b-eksiziya  
C) a-deletsiya; b-duplikatsiya  
D) a-insersiya; b-eksiziya
41. Moddalar almashnuvi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) ATF tarkibidagi uchta fosfat kislotaning ajralishi 40 kj energiya chiqishiga imkon beradi.  
B) Eukariot hujayrada reduplikatsiya va translatsiya yadroda, transkripsiya sitoplazmada amalga oshadi.  
C) Fotosintez, xemosintez reaksiyalari moddalar almashinuvining oraliq bosqichida amalga oshadigan assimilatsiya jarayoni reaksiyalari hisoblanadi.  
D) Glukoza molekulasiyadagi potensial energiyaning o'rtacha 40 foizi anaerob parchalanishdan ajraladi.
42. Jinsiy ko'payish jarayonida ulotriknsning 64 ta yangi ipi hosil bo'lgan bo'lsa, ularni hosil qilishda nechta gameta ishtirot etgan?  
A) 128 B) 64 C) 16 D) 32

43. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
 A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
44. To'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) Makkajo'xori o'simligida 3- va 5-juft xromosomalar targalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida 8 yoki 12 ta xromosomali hujayralar hosil bo'ladi.  
 B) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyoz I yakunida 45 yoki 51 ta xromosomali to'plam hosil bo'ladi.  
 C) No'xat o'simligida 2- va 5-juft xromosomalar targalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyoz I yakunida hujayrada 11 yoki 15 ta xromosoma bo'ladi.  
 D) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada deletsiya yuz berganda 13 ta xromosoma bo'ladi.
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
 1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirqquloqlimonlarda urug';  
 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;  
 5) sutevizchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
 A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Biogen migratsiyaning ikkinchi turiga mos keluvchi jarayonlarni aniqlang.  
 1) tugunak bakteriyalar tomonidan azotning o'zlashtirilishi; 2) dukkaklı o'simliklarda fotosintezning sodir bo'lishi; 3) laminariyada yodning to'planishi; 4) foraminiferalardan ohatkosh konlarining hosil bo'lishi; 5) xrokokknинг fotositez qilishi; 6) ulvada organik moddalar to'planishi  
 A) 1,4,5 B) 2,3,6 C) 1,3,5 D) 2,4,6
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) taqaburun; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaysi; 4) qaldirg'och; 5) chuchuk suv gidrasi; 6) botqoq toshbaqasi; 7) hasva qandalasi;  
 8) kabarga; 9) chigirtka; 10) zubr  
 A) a-7,9; b-4,5  
 B) a-3,4; b-1,2  
 C) a-8,10; b-1,6  
 D) a-6,10; b-3,4
48. Nomozshomgul o'simligiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) gulining qizil rangda bo'lishi retsessiv gomozigota holatdagi genlarga bog'liq; 2) hujayrasida polimeraza fermentlari yordamida polinukleotidlardan sintez qilinadi; 3) konsument sifatida oziq zanjiri tashkibiga kiradi; 4) sitoplazmasida 180 g glukozadan achish jarayonida 200 kJ energiya hosil bo'ladi; 5) hujayra qobig'in tashkil etuvchi polimerning monomerli glukozadan tashkil topgan  
 A) 2,4,5 B) 3,4 C) 2,3,5 D) 1,4
49. Odamning ko'payishiga xos bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.  
 A) Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va estrogen ishlab chiqaradi.  
 B) Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshlab bachadonda 9 oy rivojlanadi.  
 C) Bachadonda bo'shlig'iga o'tgan homilaning tashqi qismidan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orqali homila bachadon devoriga birikadi.  
 D) X xromosomali spermatozoid va Y xromosomali tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.
50. Odam organizmida maksimal bosim yuzaga kelgan vaqtida...  
 A) qoricha diastola holatida bo'ladi; simpatik nerv sistemasini ta'sir qiladi  
 B) ikki tavaqali klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha sistola holatida bo'ladi  
 C) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi  
 D) yarimoysimon klapan ochiq bo'ladi; bo'lmacha diastola holatida bo'ladi.
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemasini orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhgaga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhgaga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirot etadi  
 A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilarni orasidan sog'lom odamning siyidik qopiga xos bo'lмаган belgilarni ajratning.  
 1) murtak varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasini orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasini ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) siyidik qopi devorida proprioreceptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siyidik qopi muskullari qisqarib siyidik ajraladi  
 A) 1,2,3 B) 1,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siyaplashni va og'rini sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
 B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
 C) Qulogning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.  
 D) Harakat analizatorining olyi nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'inining orqa markazi yegatida joylashgan.
54. Qaysi javobda faqat o'pkasi yordamida nafas oluvchi organizmlar keltirilgan?  
 A) chumolixo'r, tapir, lama, salamandra  
 B) katta kivi, yexidna, triton, kazuar  
 C) suvilon, gatteriya guattara, ilonbo'yin toshbaqa, echkiemar  
 D) kolibri, yashil qurbaga, malla revun, ko'l baqasi
55. Tanasi boshko'krak, qorin bo'limlardan iborat mozaik ko'rish xos bo'lgan organizmlarni aniqlang.  
 1) sariq falanga; 2) buzoqbosh; 3) zorka; 4) langust; 5) krevetka; 6) trixogramma; 7) drozofila  
 A) 4,5 B) 6,7 C) 2,3 D) 1,2
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
 1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
 A) 1,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) 1,2,5
57. Qushning qanday patlarda ilgakchalar mavjud emas?  
 1) par; 2) qoplag'ich patlar; 3) qoqish patlari; 4) momiq patlar; 5) boshqarish patlari  
 A) 3,5 B) 1,4 C) 2,4 D) 1,5
58. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi noto'g'ri fikrni belgilang.  
 A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan.  
 B) Yassi kiprikli chuvalchanglarning parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichlilar va tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan.  
 C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinlilardan gidasimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqqan.  
 D) Qadimgi yassi chuvalchanglar tanasida tana bo'shlig'i va orqa chiqaruv teshigi payda bo'lishi bilan to'garak chuvalchanglar kelib chiqqan.
59. Parmeliya va sil batsillasi uchun umumiylar bo'lмаган xususiyatlarni aniqlang.  
 A) Translyatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi, spora hosil qiladi.  
 B) Prokariot organizm, irlsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.  
 C) irlsiy axboroti DNK molekulasida joylashgan, hujayrasi qobiq bilan o'ralgan.  
 D) Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lмаган eukariot organizmlarni aniqlang.  
 1) gommox qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leshmaniya; 6) zang zambarug'i; 7) tamaki mozaikasi  
 A) 1,4 B) 2,5 C) 6,7 D) 3,6
61. Meyoz natijasida hosil bo'ladijan hujayralarni aniqlang.  
 1) itsigakning mikrosporasi; 2) sigirquyuq tuxum hujayrasi; 3) do'lana kapalagining tuxum hujayrasi; 4) quyonunning tuxum hujayrasi; 5) g'o'za tunlamining gametasi; 6) gazandanining tuxum hujayrasi; 7) gatteriyaning spermatazoidi  
 A) 1,3,5 B) 2,4,6 C) 2,4,7 D) 3,5,6

62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarini aniqlang.  
 1) krossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyoz jarayonida xromosomalarning tasodifly tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishingin o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.  
 A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3
63. HaelIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.  
 A) *to'rtta nukleotid jufilgini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazonga o'xshaydi*  
 B) *peptid bog'mayjud, to'rtta nukleotid jufilgini taniydi*  
 C) *vodorod bog'mayjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash*  
 D) *DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi*
64. Zubturum (a) va nastarin (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
 A) *a-asosiy gulpoysi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan*  
 B) *a-asosiy gulpoysi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoysi shoxlangan*  
 C) *a-shoxlanmagan gulpoysaga gullar bandsiz birikkan; b-shoxlangan gulpoysaga to'g'ri gullar yig'ilgan*  
 D) *a-umumiy gulpoysa qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoysada gullar ketma-ket joylashgan*
65. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva  
 1) qozidastor; 2) Namangan; 3) Zarafshon; 4) gultish; 5) "Samarqand-3"; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) Namangan-34  
 A) a-3; b-1,4,6; c-8; d-7  
 B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9  
 C) a-1; b-4,5; c-8; d-7  
 D) a-3; c-8; d-6; e-9
66. "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulkosachabarglari va gultojibarglari beshtadan, ayrimlarda gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan"  
 Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.  
 A) *bug'doydoshlar* B) *ziradoshlar* C) *sho'radoshlar* D) *piyozdoshlar*
67. Lolasimonlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.  
 A) 1-*qo'ng'irbosh*; 2- *sharq sauri*; 3- *kartoshka*; 4- *bo'znoch*  
 B) 1- *oq shuvoq*; 2- *sharq sauri*; 3- *baqlajon*; 4- *bo'ymadaron*  
 C) 1- *piyozi arpa*; 2- *sekvoyadendron*; 3- *baliqko'z*; 4- *kakra*  
 D) 1- *boychechak*; 2- *qarag'ay*; 3- *qizil ituzum*; 4- *qoqio't*
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.  
 A) *atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon*  
 B) *tuproq hosil bo'lishiда ishtirok etadi*  
 C) *poyasida xitin moddasi uchraydi*  
 D) *zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi*
69. Zuhrasoch o'simligida sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?  
 1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridiy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gametalar  
 A) 5,6,7 B) 4,5,10 C) 1,2,3 D) 7,8,9
70. Qirg'ovullarning yettisoy, murg'ob, yapon kabi kenja turlarining paydo bo'lishi (a), tur doirasida yangi populyatsiyalarning paydo bo'lishi (b) qanday jarayonlarni aks ettiradi?  
 A) *a-divergensiya; b-konvergensiya*  
 B) *a-mikroevolyutsiya; b-mikroevolyutsiya*  
 C) *a-mikroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya*  
 D) *a-makroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya*
71. Bitta biogeografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.  
 A) *lattachi baliq, lemur, o'dakburun, kapachi qush, yexidna, kolibri, emu, tustovuq*  
 B) *kabarga, los, chittak, ot, bizon, bo'ri, vixuxol, qunduz, tovus, zubr, maral, muskusli qo'y*  
 C) *jirafa, agama, to'ti, echkemar, nosorog, zebra, malla revun, zubr, martishka, begemot*  
 D) *antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, tovus, orangutan, nosorog, timsoh, gibbon*
72. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
 A) *a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish*  
 B) *a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish*  
 C) *a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish*  
 D) *a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish*
- KIMYO**
73. Ftorokauchuk olishda qanday monomer(lar) ishlatalidi?  
 1) tetratoretilen; 2) triforxloretilen; 3) difordixloretilen; 4) viniliden ftorid; 5) vinil ftorid  
 A) 3,5 B) 2,4 C) 1 D) 2,3
74. Yodolda uglerodning oksidlanish darajalari yig'indisi nechaga teng?  
 A) +2 B) +6 C) 0 D) +5
75. Quyidagi qaysi modda faqat oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi?  
 A)  $PbO_2$   
 B)  $H_2O_2$   
 C)  $Cu_2O$   
 D)  $Fe^{2+}$
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 2960 ta azot atomi bor bo'lsa, nukleotid tarkibida nechta guamin bor? (nukleotidlarning 30% ini adenin tashkil etadi)  
 A) 320 B) 160 C) 240 D) 180
77. 17,8 g  $\alpha$ -aminokislotadan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotani toping.  
 A) *a-amino 2- metilpropan kislota*  
 B) *glitsin*  
 C)  *$\beta$ -aminopropion kislota*  
 D)  *$\alpha$ -aminopropion kislota*
78. 1,75 mol glyukozaning glitserinli bijg'ishi natijasida ( $\eta=0,8$ ) hosil bo'lgan  $CO_2$  ning atomlar sonini aniqlang.  
 A)  $1,4 \cdot N_A$   
 B)  $4,2 \cdot N_A$   
 C)  $5,25 \cdot N_A$   
 D)  $2 \cdot N_A$
79. Karbon kislota kalsiyli tuzi pirolizidan aldegid olindi. Agar aldegid qaytarilganda olingan spirtning bitta molekulasi tarkibida  $sp^3$ -s qoplanishlar soni 8 ta bo'lsa, dastlabki tuzning tuzilishini aniqlang.  
 1)  $(CH_3COO)_2Ca$ , 2)  $CH_3CH_2COO-Ca-OOCCH_3$ ,  
 3)  $CH_3COO-Ca-OOCH_3$ , 4)  $CH_3COO-Ca-OOCH_2CH_3$   
 A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
80. Tarkibida 1 ta  $sp^3-sp^2$  va 12 ta  $sp^3$  gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar) niitrolanganda necha turdag'i mononitrobirkma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
 A) 4 B) 3 C) 2 D) 5
81. Xinolin molekulasi qaysi halqalarning kondensiranishidan hosil bo'ladi?  
 A) *benzol va pirimidin*  
 B) *benzol va piridin*  
 C) *pirimidin va imidazol*  
 D) *piridin va imidazol*
82. 11,6 g asetonga yetarli miqdorda gidroksilamin ta'sir ettirilganda necha gramm oksim hosil bo'ladi?  
 A) 29,2 B) 14,6 C) 21,9 D) 73
83. Tarkibida 1 ta  $sp^3-sp^2$  bog' va 16 ta  $sp^3$  gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar) niitrolanganda necha turdag'i mononitrobirkma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
 A) 6 B) 4 C) 10 D) 8
84. 1:2 mol nisbatda olingan Bertole tuzi va kalyj nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nayni to'liq eritish uchun 200 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlanganini aniqlang?  
 A) 50 B) 80 C) 40 D) 60
85. Quyidagi qaysi moddaning shirinligi qandga nisbatan 40% kam bo'lib, vino va pivo ishlab chiqarish sanoatida oraliq mahsulot hisoblanadi?

- A) *saxaroza* B) *maltoza* C) *sellbiozoa* D) *laktoza*
86. 6,72 litr (n.sh.) butan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.  
 A)  $7 \cdot N_A$   
 B)  $3 \cdot N_A$   
 C)  $3,6 \cdot N_A$   
 D)  $2,4 \cdot N_A$
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmi tarkibini aniqlang.  
 A)  $1/9; 5/9; 1/3$   
 B)  $3/10; 3/10; 2/5$   
 C)  $1/6; 1/2; 1/3$   
 D)  $1/4; 1/4; 1/2$
88. Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati  $n=3$ ;  $l=2$ ;  $m_l=x$ ;  $m_s=+1/2$ . Agar shu qiymatlar yig'indisi 7,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
 A) *Ni* B) *Sc* C) *Ti* D) *Cr*
89. 0,06 mol  $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
 A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Tarkibida massa bo'yicha 28% Me, 24% S va 48% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.  
 A)  $\text{FeSO}_4$   
 B)  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$   
 C)  $\text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3$   
 D)  $\text{Na}_2\text{SO}_3$
91. 1 mol  $\text{C}_3\text{H}_6$  va  $\text{H}_2$  aralashmasi ( $D_{\text{H}_2}=14,5$ ) yopiq idishda Pt katalizator ishtirokida  $320^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 30% ga kamaygan bo'lsa, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.  
 A) 75 B) 70 C) 92,3 D) 30
92. 540 g 40%li eritmada (suv) va erigan modda mol nisbati 15:1 bo'lsa, qanday modda eriganligini aniqlang?  
 A)  $\text{H}_2\text{SO}_4$   
 B) *glukoza*  
 C) *saxaroza*  
 D)  $\text{NaOH}$
93. 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Erigan moddaning molyar massasini (g/mol) aniqlang. ( Reaksiya sodir bo'lmaydi)  
 A) 56 B) 40 C) 63 D) 98
94. Nitrat kislötaning 30% li va 40% li eritmalar bo'lib, 30% li eritmadagi kislota massasi 40% li eritmadagi suv massasidan ikki marta katta bo'lsa, ushu eritmalar aralashtrilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.  
 A) 26 B) 32 C) 44 D) 38
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^4$  marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
 A) 4 B) 9 C) 5 D) 10
96. Quyidagi qaysi moddalar ta'sirlashganda faqat o'rta tuz hosil bo'ladi?  
 A) *natriy gidroksid va vodorod sulfid*  
 B) *alyuminiy gidroksid va sulfat kislota*  
 C) *litiy oksid va xlorid kislota*  
 D) *kalsiy gidroksid va bromid kislota*
97. Quyidagi qaysi reaksiyada xlor hosil bo'ladi?  
 A)  $\text{Al}_2\text{O}_3 + \text{HCl}$   
 B)  $\text{ZnO} + \text{HCl}$   
 C)  $\text{MnO}_2 + \text{HCl}$   
 D)  $\text{CuO} + \text{HCl}$
98. 0,28 % li KOH ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. ( $\rho=1,55 \text{ g/ml}$ )  
 A) 12 B) 13 C) 11 D) 4
99. 38/28 g azot oksidi tarkibida 0,5 g azot bor. Shu oksidning formulasini aniqlang.  
 A)  $\text{NO}_2$   
 B)  $\text{N}_2\text{O}_3$   
 C)  $\text{N}_2\text{O}_5$   
 D)  $\text{NO}$
100.  $\text{CaCO}_3$  va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  dan iborat aralashma doimiy massaga qadar qizdirilganda keyin qoldiq massasi dastlabki aralashma massasining 60% ini tashkil qildi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.  
 A) 79,7; 20,3  
 B) 74,6; 25,4  
 C) 31,8; 68,2  
 D) 45,5; 54,5
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, litiyning miqdorini (mol) hisoblang.  
 A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
 A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
 A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. 20 litr  $\text{NH}_3$  parchalanganda uning hajmi 5/4 marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang.  
 A) 4,2 B) 3,4 C) 6,8 D) 4,8
105. 10,96 g  $\text{Ca}_3\text{N}_2$  va  $\text{CaH}_2$  dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan  $\text{CaCl}_2$  ning miqdorini (mol) hisoblang.  
 A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.  
 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ; 2)  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ; 3)  $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ ; 4)  $\text{NaNO}_2$ ; 5)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ; 6)  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$   
 A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasi massasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.  
 A) *buten* B) *etilen* C) *penten* D) *propen*
108. Metan quyosh nuri ta'sirida xlorlansa, reaksiya portlash bilan borib, 18 g qattiq modda hosil bo'ladi. Reaksiya uchun kerak bo'ladigan xlor hajmini (litr,  $t=0^{\circ}\text{C}$ ,  $101,325 \text{ kPa}$ ) hisoblang.  
 A) 67,2 B) 56 C) 44,8 D) 89,6